

NUTQIY VA IMLOVIY SAVODXONLIK – ONA TILI MASHG'ULOTLARINING BOSH MAQSADI

Bo‘ronova Shohista Mengliboyevna, pedagogika fanlari nomzodi, Nukus davlat pedagogika instituti, O‘zbek tili kafedrasi dotsenti.

**Karimboyeva Shohida,
O‘zbek tili kafedrasi assisent o‘qituvchisi**

Mustaqillik tufayli yosh avlodni savodxon, har tomonlama yetuk kishilar qilib tarbiyalash ishiga hukumatimiz tamonidan tinmay g‘amxo‘rlik qilib kelinmoqda. Yosh avlodni yetuk madaniyatli, savodxon qilib yetishtirish, ijodiy ishga o‘rgatish har bir fan o‘qituvchisining burchi hisoblanadi. Imloni o‘rgatish va nutq o‘stirish muammosi maktablari ona tili ta’limi tizimida ustuvor o‘rin egallaydigan eng ahamiyatli va hamisha dolzarb masalalardan biridir.

Dasturilamal manbalarda alohida ta’kidlanishicha, ona tili mashg‘ulotlarining bosh maqsadi bo‘lmish savodxonlik muammosi 5-sinf dasturida ajratilgan 70 soatlik o‘quv mashg‘ulotlaridan o‘rgatiladigan «Ayrim qarorlar imlosi», «Unlilar talaffuhzi va imlosi», «Ayrim undoshlar talaffuzi va imlosi», «Qo‘s sh va qator undoshlar talaffuzi va imlosi», «Bo‘g‘in», «O‘rg‘u» kabi mavzularda har bir darsning bosh maqsadi, dars jarayonida o‘quvchi-o‘qituvchi yoki o‘qituvchi-o‘quvchi faoliyatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

Ayni maqsad mifikada «Fonetika» bo‘limini o‘qitishning maqsad va vazifalari, kursning mazmuni taqozasi bilan izohlanadi. SHuning uchun eslatilgan mavzular sirasida «x» va h tovushlarining talaffuzi va imlosi «f» tovushi va harfi, «j» tovushi va harfi, «Tutuq belgisi, uning talaffuzi va imlosi» singarilarni o‘qitish darslarida asosiy e’tibor ularning imlosi va talaffuzining amaliy o‘rgatishga qaratiladi.

Ma’lumki, savodxonlik muammosi ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘indanoq boshlanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga unli, undosh tovushlar va ayrim undoshlarning imlosi, jarangli va jarangsiz undoshlar, bo‘g‘in, urg‘u singarilar xususida eng zaruriy ma’lumotlar beriladi. Ammo 5-sinfda «Fonetika» ni yaxlit, bir butun sifatida o‘qilib, uning oldiga o‘quvchilarning boshlang‘ich ta’limda savodxonlik yuzasidan olgan bilim, egallagan malakalarini takomillashtira borgan holda, uning sir asroroarini nazariy va amaliy o‘rgatish kabi muhim vazifalar ham qo‘yiladi: **tor-dor, ato-ota, xirs-hirs** kabi juftlarning ma’nosidagi farqlarni o‘rgatish kabilari.

Ayni maqsadda bu bo‘limda o‘quvchilarning imloviy sovodxonligini oshirishga qaratilgan tubandagicha eng muhim vazifalar bajariladi, muammolar o‘z echimini topadi.

- abadiy talaffuz me’yorlarini o‘rgatish va imlo savodxonligini oshirish;
- so‘z zaxirasini oshirish: davo-da’vo...
- badiiy o‘qish malakalarini takomillashtirish;
- fonetikadan fikrni og‘zaki va yozma shakllarda bayon qilish uchun zarur bo‘lgan ilmiy-amaliy ma’lumotlar berish.

Fikrimizcha, 5-sinf ona tili darsligida berilgan mashqlarda 5-sinf o‘quvchilariga imloda beriladigan amaliy ma’lumotlar nazarda to‘tilgan bo‘lsa, ular sirasida “Bilib oling” ko‘rsatkichi bilan berilgan “Esda tuting” ko‘rsatkichi bilan berilgan kichik va nihoyatda ixcham ma’rifiy matn nazarda tutilganligi shubhasizdir.

Zero, ularda 5-sinf o‘quvchilarining qobiliyatlari hisobga olingan. Masalan,

1. ng tovushni talaffuz etishda bo‘g‘izdan chiqqan havo oqimi burunga yo‘naladi... ng tovushi so‘z boshida kelmaydi, faqat so‘zning o‘rtasi va oxirida keladi: ming, teng, ong kabilar

2. oi tovushlari birikmasi talaffuzida unlilar orasiga juda zaif u(y) tovushini qo‘sib aytilsa ham, lekin yozuvda oi tarqida yoziladi.

3. So‘z oxirida b,d tovushlari jarangsizlanib p va t dek o‘qiladi, lekn yozuvda b,d harflari bilan yoziladi va h.k., shubhasiz, 5-sinf o‘quvchilar uchun didaktik prinsipini ustuvor o‘ringa qo‘yilib berilgan ilmiy ma’lumotlardir. «Bilib oling», «esda tuting» ko‘rsatkichlari bilan berilgan ma’rifiy matnlardan umumiyl xulosa shuki, 5-sinf danoq savodxonlikni o‘rgatishda o‘zbek imlosining fonetik, morfologik va b. prinsiplariga qat’iy amal qilinadi. Bu keyingi sinflarda ham o‘zviylikda davom etadi. Masalan, VI sinfda «Harakat nomlarining yasalishi va imlosi» mavzusida o‘qi+v=o‘quv, ishma+v=ishlov i>y, a>o hodisalari ishlamoq-ishlov, saylamoq-salov, to‘qimoq-to‘quv kabilardagi tovush o‘zgarish hodisalari. Son –ala,-ov qo‘sishimchalar ikki, olti, etti so‘zlariga qo‘shilganda, bu sonlardagi oxirgi **i** unlisining tushib qolishi holatlari singarilar muktab ta’limida orfografiyaning morfologiya bilan uzviy aoqadorligi taqozasidir. Chunki o‘zbek imlosining morfologik prinsipi orfografiyaning etakchi prinsipi sanaladi. Bu bo‘limda 6-7 sinf o‘quvchilarining 5-sinf dasturi hajmida imloviy savodxonlik bo‘icha olgan bo‘limlar, eagallagan malaka va ko‘nikmalari takomillashtirila boradi.

Demak, imloviy malakalari har bir mazvuning mazmuni, hajmi taqozasida DTS me’yorlari asosida taokmillashtira borish muktabda o‘qitiladigan «Fonetika» va «morfologiya» kurslarining asosiy vazifasi, ona tili mashg‘ulotlarining bosh

maqsadidir. Bu maqsadga o‘zbek imlosining etakchi tamoyillarini puxta o‘rgatish shuningdek imloning boshqa tamoyillariga murojaat etishni talab qiladigan amaliy topshiriqlardan namunalar orqaligina erishiladi. Ayni ma’noda imloning tubandagi prinsiplari talablarini amaliy o‘rgatuvchi omillardan didaktik me’yor va mezonda muvofiq deb hisoblaymiz. Ishning navbatdagi paragrafida bu tamoyillardan qisqa ma’lumot beramiz.

Eng muhim va ahamiyatli bu muammo mактабда imloni o‘qitish va nutq o‘stirish muammosi dasturilamal manbalarda ta’kidlanganidek, avvalo, til sathlarini o‘zaro bog‘lab o‘rganish tufayligini hal qilinadi.

Masalan, 5-sinfda fonetikaga oid o‘quv topshiriqlari tizimida tovushdan so‘zlar atamasi taqozasida bajariladigan amaliy ishlar nafaqat o‘quvchi so‘z boyligini, balki ularning savodxonligini oshirishda ham alohida ahamiyat kasb etadi: ota-ato, bor-bot singari so‘zlarning ma’nodoshlari va uyadoshlarini aniqlashga da’vat qiluvchi o‘quv topshiriqlari, imloni o‘rgatishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zero, «Fonetika»ni o‘rganishda eng muhim masala imlodir. Shuning uchun unlilar va undoshlar talaffuziga oid mashg‘ulotlarda ularning talaffuzi va imlosiga alohida e’tibor beriladi.

Eng muhimi, 5-sinfda fonetika bo‘limini o‘rgatishda bos-boz, nos-noz, bos-bas kabi tovushdan so‘zlarni topish va shunday so‘zlar ro‘yxatini tuzish, ularning ma’nosini sharhlash va imlosi ustida ishslash, o‘quvchilar uchun g‘oyat qiziqarli va foydalidir

Fikrimizcha, til ta’limining eng murakkab va mavhum tomoni bo‘lgan imloni o‘rgatish muammosining ustuvor omilidir.

Ayni ma’noda UO‘T o‘quvchilarning ona tilidan bilim, ko‘nikma va malakalarga qo‘yiladigan talablar sirasida imlo, talaffuz, tinish belgilari bilimlarni baholash mezonining muhim parametridir.

Demak, nafaqat fonetikaga oid mavzularda, balki morfologiya sintaksisiga doir mavzularni o‘qitishda, xususan, bu bulimlarga doir lisoniy tahlillarda imloni o‘rgatish, so‘z boyligini oshirish va nutq o‘stirishga ham alohida e’tibor berilsagina ona tilini o‘qitishning bosh maqsadi hamda vazifalari bajariladi. Zero, imlo bir soatlik mashg‘ulot muammosi emas. U ta’limning har ikki bo‘g‘inida ona tili mashg‘ulotlari jarayonida ham qilinadigan muammodir. Bu aksiomadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Неъматов Ш., Ғуламов А. Мактабларда тил сатҳларини ўзаро боғлаб ўргатиш. Тошкент, 1992. – Б. 7-10.

2. Нематов Ш., Гуламов А. Фонетикадан зарур билимлар силсиласи. Китоб. Она тили таълими мазмуни. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 54-60.
3. Зиёдова Т. Тилсим топишмоқлари – нутқий фаолиятини шакллантириш омили. – Тошкент, 1999. – Б. 17-18.
4. Tajimuratovna, X. M., Menglibaevna, B. S., Ataxanovna, Y. G., & Zaripbaevna, S. A. (2021). Umumiy O ‘Rta Ta’lim Maktablarida O ‘Quvchilar Bilimlarini Baholash Va Nazorat Qilishda Elektron Vositalaridan Foydalanish Usullari. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(5), 16-19.
5. Yusupova, G. A., Khudayorova, M. T., Buranova, S. M., Atiyazov, S. J., & Allanazarova, A. (2021). Formation of linguistic competencies in the uzbek language in future teachers. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 335-341.